

EFIR MOYLARI VA ULARNI ANFLERAJ USULIDA AJRATIB OLISH

Razzakov Nabijon Alijonovich
dotsent, Qo'qon universiteti Andijon filiali
Aliyev Lazizbek Mahamadjonovich
katta o'qituvchi, Qo'qon universiteti Andijon filiali
Ortikov Muhammadibrohim Musojonovich
assistent, Qo'qon universiteti Andijon filiali

Annotasiya: Maqolada efir moylari haqida qisqacha ma'lumot berilib, o'simliklar tarkibidagi efir moylarini uy sharoitida anfleraj usuli bilan qattiq yog'larga yuttirish yo'li bilan ajratib olish usuli haqida so'z boradi. Bundan tashqari, EM dan tibbiyotda qo'llash o'rinlari hamda davolovchi massajlarda ushbu moddalardan kompozitsiya tayyorlash namunalari berilgan.

Kalit so'zlar: Efir moylari, biologik faol qo'shilma, nevrosteniya, bakteriosid, ruhiy holat, aromaterapiya, davolovchi massaj.

Аннотация. В статье даются краткие сведения об эфирных маслах, а также рассказывается о способе получения эфирных масел из растений путем растворения их в твердых маслах методом анфлераж в домашних условиях. Кроме того, приведены примеры использования ЭМ в медицине и приготовления композиций из этих веществ при лечебном массаже.

Ключевые слова: эфирные масла, биологическая активная добавка, неврастения, бактериоцид, психическое состояние, ароматерапия, лечебный массаж.

Kirish. Ma'lumki, insonlar bir necha ming yillar mobaynida tabiatdagi o'simlik va hayvon mahsulotlaridan tayyorlangan shifobaxsh vositalardan oqilona foydalanish uslublari bilan o'zlari va boshqalarni salomatligini saqlab kelganlar [1]. Hozirda xalq tabobatining minglab yillik tajribalari bilan zamonaviy tibbiyotning ilmiy asosga ko'ra isbotlangan bilimlarni jamlashga ehtiyoj paydo

bo'ldi. Chunki, har ikkisinin ham asl maqsadi va vazifalari bir ya'ni, jamiyatning salomatligini profilaktika qilish hamda davolashdan iboratdir.

Inson doim kasallikka qarshi kurashib kelgan, u birinchi bor dorivor vositani tabiat deb atalmish dorixonadan: o'simlik (bargi, ildizi, meva va boshqa organlari), hayvon va minerallardan olgan [2]. Dorivor o'simliklar tabiiy dorivor resurslar ichida xalq tabobati, zamonaviy tibbiyot uchun yana biologik faol qo'shilmalar (BFQ), zamonaviy preparatlar ishlab chiqarish uchun xom-ashyo sifatida asosiy biologik resurs hisoblanadi [3].

Kundalik xayotimizda insonlar orasida turli xil voqea va xodisilar, dipressiyalar, turli xayajonli xolatlar yuz berib turadi. Insonlarning oilaviy muhiti, ishlash jarayonlarida asab tizimining buzilishi, strestlar bu - nevro'z kassalligiga olib keladi.

Anashunday biologik faol moddalar qatorida efir moylari muhim o'rinni egallaydi. Efir moylari to'g'risidagi dastlabki tasavvurlar XVIII asrlarda paydo bo'lsada, ularning xossalari to'g'risidagi tushunchalar XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida paydo bo'ldi. O'simliklar dunyosida efir moylari juda keng tarqalgan bo'lib, aniqlanishicha, 2500 dan ortiq tur o'simliklarda ushbu moddalar bo'ladi. Ayniqsa, yasnotkadoshlar – Lamiaceae oilasi, labguldoshlar – Labiatae, selderdoshlar – Apiaceae, soyabonguldoshlar – Umbelliferae, murakkabguldoshlar – Compositae, sho'radoshlar – Chenapodiaceae, mirtadoshlar – Myrtaceae, rutadoshlar – Rutaceae, ra'noguldoshlar – Rosaceae va boshqa oilalarning vakillari efir moylariga boydir [4].

Ma'lumki, efir moylari deb – o'simliklar tarkibidan suv bug'lari orqali haydash yo'li bilan olinadigan, o'ziga hos hidaga hamda ta'mga ega bo'lgan uchuvchan organik moddalar aralashmasiga aytiladi. O'simliklarning deyarli barcha organlarida efir moylari bo'ladi, asosan yer ustki qismlarida (gul, meva kebi) to'planadi. Olimlarning olib borgan tadqiqotlari natijalariga ko'ra efir moylari (EM) ga boy o'simliklar orasida shimol hududlarida o'suvchi vakillariga nisbatan janubiy zonalarda uchrovchi vakillari boyroq bo'lar ekan. Ushbu

moddalar o'simliklar tarkibida asosan ikki hil tarzda: erkin holda hamda glikozidlar tarkibi ko'rinishida uchraydi.

EM o'simlik hayotida qanday rol o'ynashi va qanday muhim biologik vazifani o'tashi to'g'risida olimlarning farazlari mavjud. Asosan, dorivor o'simliklar o'sish va rivojlanish davrlarida turli hil noqulay sharoitlarga duch keladi, shu vaziyatlarda EMni o'simlikning yashash uchun kurashga yordam beruvchi moddalar qatoriga kirgizishadi. Bundan tashqari ularning ikkinchi foydasi deb, bu moddalar hushbo'y hidga ega bo'lganligi sababli, o'simlik gullash davrida changlanishi uchun hashoratlarni jalb qilish ahamiyati ham bor deb e'tirof etiladi.

Efir moylari tarkibida bir qator ko'p komponentli organik birikmalar mavjud. Bular yuqori organik kislotalar, efirlar, bir va ko'p atomli spirtlar, aldegidlar, ketonlar, terpenlar va fenollar bo'lib, ularning soni 120 dan 500 gacha o'zgarib turadi. Asosiy guruh izopren tuzilishga ega bo'lgan moddalardan iborat [5].

Metodologiya. Odatda EM ni bu usulda ajratib olishda yuqori organoleptik (qizdirilganda parchalanib ketuvchi) hususiyatli, yuqori sifatli namunalarini yuttirib olishga asoslanadi. O'simlik gullari salqin sharoitda yig'ib olinadi, gullar yog'larga bir necha kun davomida yutilib o'tishi orqali ajratib olingani sababli usulni anfleraj (yuttirish) usuli deb nomlanadi.

Buning uchun 50 X 50 sm hajmdagi qalin oynani olib, uni qalinligi 5 sm bo'lgan ramkaga o'rnatiladi. So'ngra, ramkaning ikki tomoniga yuqori sifatli yog'lar aralashmasi yupqa tarzda surtiladi. Yog'lar o'rnida mol yog'i va qo'y yog'lari (3 : 2) nisbatda olish mumkin. Surtilgan yog' qatlamga o'simlikning gullari yoki tojbarklari joylanadi. Quyida ushbu jarayonning atirgul tojibarglari misolida ko'rinishi berilgan:



1- Rasm. Efir moylarini anfleraj usulida ajratib olish

Ramka mahsus tahtaga o'rnatiladi, EM ning yog'larga yutilishi jarayoni tabiiy sharoitda kechadi. O'simlik organlari 1 – 2 kun tirgandan so'ng, gullar (tojibarklar) yangilanadi. Shu jarayon qayta – qayta takrorlanadi va yog'lar ajratib olinadi. Shunday qilib, uchuvchan, haroratga chidamsiz bo'lgan namunalari shunday olish mumkin.

Efir moylari "aromaterapiya" ko'rinishida inson tanasiga ta'siri uzoq vaqtdan beri keng qo'llanilib kelinmoqda. Ularning aromaterapiya qo'llanilishining sababi, efir moylarining xushbo'y hidlari inson tanasining jismoniy va psixologik holatiga ta'sir qilishidir. Bundan tashqari EM bakteriosid xossaga ham ega bo'lib, shu o'rinda qo'llanilib kelinmoqda. Bundan tashqari EM boy dorivor o'simliklardan endilikda, asab tizimi kasalliklarida aniqrog'i, nevrosteniya kabi kasalliklarda tinchlantiruvchi tabiiy vosita sifatida ham keng ishlatilmoqda. Misol uchun, lavandaning EM eng yaxshi tabiiy antiseptiklaridan biridir, shu bilan birga ayni paytda sedativ ta'sirga ham ega, kayfiyatni yaxshilaydi, charchoqni, depressiyani, bosh og'rig'ini qoldiradi [6].

Xulosa. Demak, EM boy dorivor o'simliklar tarkibidan uy sharoitida ham Anfleraj (yuttirish) usuli bilan ushbu biologik faol moddalarni ajratib olish mumkin. Olinfan termolabil EM ni parfimeriya maqsadlarida, terini sillig'lash, uni yoshartirish maqsadlarida qo'llash mumkin [7-8]. Tibbiyot maqsadlarida uning hush bo'y hidi orqali asab tizimimizni tinchlantirishimiz mumkin. Aromaterapiya va massaj o'rinlarida qo'llash uchun tavsiya: 15-20 tomchi efir moyini 50 ml uy ro'zg'ordagi moy bilan yaxshilab aralashtiriladi, bolalar uchun 5-7 tomchi etarli, chaqaloqlar uchun esa - bitta tomchi kifoya qiladi, tayyorlab olingan aralashmani tananing massaj qilinadigan o'rniga surtish bilan davom ettiriladi.

Foydalingan adabiyotlar

1. Асқаров И.Р., Сирли табобат, Тошкент, 2021, 3-б
2. Галкина И.В //Основы химии биологически активных веществ// Казань, 2011. Стр.6
3. Handa.S.S, Khanuja.S.S, Longo.G, Rakesh.D.D // Extraction Technologies for Medicinal and Aromatic Plants// Italy. 2008. P.7
4. Х Х.Холматов, Ў.А. Ахмедов // Фармакогнозия // Тошкент. Абу Али ибн Сино номидаги Тиббиёт нашриёти, 1997. 125 – б
5. Н.Н.Сентябрев, В.В.Караулов, В.С.Кайдалин, А.Г.Камчатников // ЭФИРНЫЕ МАСЛА В СПОРТИВНОЙ ПРАКТИКЕ // Монография. Волгоград, 2009, 12 –стр
6. Ирина Алексеевна Буренина // Основные методологические принципы применения ароматерапии в восстановительном лечении // Вестник современной клинической медицины . 2009, Том 2, вып. 2. Стр.47
7. Tuychiyev, G., Razzakov, N., & Ortikov, M. (2024). DORIVOR NA'MATAK VA ZIRK MEVALARINING KIMYOVIY TARKIBI O'RGANISHGA KIRISHISH. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 10(10), 150–152. <https://doi.org/10.54613/ku.v10i10.937>
8. Razzakov, N. (2024). DORIVOR O'SIMLIKLAR EKSTRAKSIYASINING OPTIMAL USULINI ISHLAB CHIQISH. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 10(10), 147–149. <https://doi.org/10.54613/ku.v10i10.936>